




## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **439,2** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **96,1 %** ni tashkil etdi.




## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-may, mln. AQSH dollar)

	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>456,9</b>	<b>439,2</b>	<b>96,1</b>	<b>x</b>
<b>Eksport</b>	<b>170,3</b>	<b>215,2</b>	<b>126,4</b>	<b>100,0</b>
<b>tovarlar</b>	166,4	213,7	128,4	99,3
<b>xizmatlar</b>	3,9	1,5	39,4	0,7
<b>Import</b>	<b>286,6</b>	<b>224,0</b>	<b>78,2</b>	<b>100,0</b>
<b>tovarlar</b>	271,8	218,1	80,2	97,4
<b>xizmatlar</b>	14,8	5,9	39,7	2,6
<b>Saldo</b>	<b>- 116,3</b>	<b>- 8,8</b>	<b>x</b>	<b>x</b>

*Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovalarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

Navoiy viloyati jahonning **69** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**20,5 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**15,6 %**), Kanada (**14,1 %**), Fransiyada (**13,3 %**) va Qozog'istonda (**11,6 %**) qayd etilgan.

## NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	90,3	39,1	51,2	20,5
Xitoy Xalq Respublikasi	68,7	2,9	65,8	15,6
Kanada	61,7	59,4	2,3	14,1
Fransiya	58,5	57,5	1,0	13,3
Qozog'iston	50,9	8,8	42,1	11,6
Turkiya	26,6	15,8	10,8	6,0
Hindiston	10,2	-	10,2	2,3
Koreya Respublikasi	9,8	0,1	9,7	2,2
Litva	7,8	6,6	1,2	1,8
Qirg'iz Respublikasi	6,9	5,9	1,0	1,6

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnni bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qирг'из Республикаси bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Qирг'из Республикаси, Turkmaniston, Afg'oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Kanada, Fransiya, Turkiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Litva, Eron Islom Respublikasi va Germaniya hissasiga to'g'ri kelgan.

(yanvar-may, mln. AQSH dollar'i)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>54,4</b>	<b>80,2</b>	<b>90,3</b>
<i>Eksport</i>	17,0	13,0	39,1
<i>Import</i>	37,4	67,2	51,2
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>63,0</b>	<b>62,2</b>	<b>68,7</b>
<i>Eksport</i>	13,9	33,1	2,9
<i>Import</i>	49,1	29,1	65,8
<b>Kanada</b>	<b>23,3</b>	<b>86,5</b>	<b>61,7</b>
<i>Eksport</i>	23,3	83,6	59,4
<i>Import</i>	-	2,9	2,3
<b>Fransiya</b>	<b>79,0</b>	<b>1,6</b>	<b>58,5</b>
<i>Eksport</i>	78,3	-	57,5
<i>Import</i>	0,7	1,6	1,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>22,6</b>	<b>25,8</b>	<b>50,9</b>
<i>Eksport</i>	2,4	5,4	8,8
<i>Import</i>	20,2	20,4	42,1
<b>Turkiya</b>	<b>19,6</b>	<b>31,5</b>	<b>26,6</b>
<i>Eksport</i>	9,0	15,0	15,8
<i>Import</i>	10,6	16,5	10,8
<b>Hindiston</b>	<b>1,7</b>	<b>1,0</b>	<b>10,2</b>
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	1,7	0,9	10,2
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>33,7</b>	<b>14,0</b>	<b>9,8</b>
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	33,7	13,9	9,7
<b>Litva</b>	<b>39,9</b>	<b>34,2</b>	<b>7,8</b>
<i>Eksport</i>	1,9	4,9	6,6
<i>Import</i>	38,0	29,3	1,2
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>17,6</b>	<b>2,3</b>	<b>6,9</b>
<i>Eksport</i>	17,5	1,9	5,9
<i>Import</i>	0,1	0,4	1,0

## NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollar)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>1,2</b>	<b>3,7</b>	<b>5,9</b>
<i>Eksport</i>	-	0,2	0,8
<i>Import</i>	1,2	3,5	5,1
<b>Turkmaniston</b>	<b>7,3</b>	<b>3,5</b>	<b>5,9</b>
<i>Eksport</i>	6,9	2,6	4,7
<i>Import</i>	0,4	0,9	1,2
<b>Germaniya</b>	<b>6,1</b>	<b>6,6</b>	<b>5,7</b>
<i>Eksport</i>	0,1	-	-
<i>Import</i>	6,0	6,6	5,7
<b>Afg'oniston</b>	<b>0,2</b>	<b>3,1</b>	<b>5,6</b>
<i>Eksport</i>	0,2	3,1	5,6
<i>Import</i>	-	-	-
<b>Tayvan</b>	-	-	<b>2,3</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	2,3
<b>Singapur</b>	<b>1,4</b>	<b>2,5</b>	<b>2,3</b>
<i>Eksport</i>	1,2	2,5	2,3
<i>Import</i>	0,2	-	-
<b>AQSH</b>	<b>14,4</b>	<b>33,3</b>	<b>2,0</b>
<i>Eksport</i>	0,1	0,7	0,4
<i>Import</i>	14,3	32,6	1,6
<b>Yaponiya</b>	<b>3,2</b>	<b>15,2</b>	<b>1,9</b>
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	3,0	15,2	1,9
<b>Tojikiston</b>	<b>0,2</b>	<b>0,8</b>	<b>1,8</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,6	1,8
<i>Import</i>	-	0,2	-
<b>Polsha</b>	<b>3,2</b>	<b>0,2</b>	<b>1,5</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,1	1,1
<i>Import</i>	3,0	0,1	0,4



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>439 204,7</b>	<b>96,1</b>
Navoiy sh.	232 710,5	79,7
Zarafshon sh.	4 044,6	54,6
G'ozg'on sh.	468,0	2,7 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	139 771,1	133,2
Konimex	206,4	18,1
Qiziltepa	30 651,4	3,7 b.
Navbahor	13 705,9	119,5
Nurota	3 517,5	68,6
Tomdi	522,8	16,4
Uchquduq	9 385,2	3,3 b.
Xatirchi	3 631,8	21,8
Bo'linmaydigan hajm	589,5	-




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **53,0 %** ulush bilan **232 710,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,05 %** ulush bilan **206,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan choratadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **36,0 %** ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-may oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **86,2 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **64,0 %** ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **215,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,4** % ni tashkil etdi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**56,9** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**21,6** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**12,5** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami eksport	170,3	215,2	126,4	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,4	8,9	119,9	4,1
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,3	26,8	6,3 b.	12,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	1,4	105,3	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	111,4	122,6	110,0	56,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	36,4	46,4	127,4	21,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,4	1,2	2,7 b.	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	5,2	6,3	121,9	2,9
Xizmatlar	3,9	1,5	39,4	0,7

2022- yilning yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, mashinalar va transport asbob-uskunalar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




### NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollar)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-may oylarida eksport hajmi **215,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



2022-yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariiga **61,3** mln. AQSH dollarri qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,5** % ini tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022-yil yanvar-may, % da)



2022-yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **27,6** %), Fransiya (**26,7** %), Rossiya Federatsiyasi (**18,2** %), Turkiya (**7,3** %), Qozog'iston (**4,1** %), Litva (**3,0** %) va Qirg'iz Respublikasi (**2,7** %) saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **89,6** % ni tashkil etmoqda.



Davlatlar	Ming AQSH dollarari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Kanada	83 642,1	59 419,9	71,0	1
Fransiya	-	57 457,1	-	2
Rossiya Federatsiyasi	12 963,8	39 082,1	3,0 b.	3
Turkiya	14 944,9	15 758,1	105,4	4
Qozog'iston	5 362,2	8 776,1	163,7	5
Litva	4 938,8	6 555,8	132,7	6
Qirg'iz Respublikasi	1 914,8	5 912,6	3,1 b.	7
Afg'oniston	3 068,9	5 571,6	181,5	8
Turkmaniston	2 600,8	4 699,0	180,7	9
Xitoy Xalq Respublikasi	33 064,0	2 912,6	8,8	10
Singapur	2 451,1	2 272,4	92,7	11
Tojikiston	609,5	1 767,0	2,9 b.	12
Polsha	128,9	1 085,5	8,4 b.	13
Eron Islom Respublikasi	244,6	795,6	3,3 b.	14
BAA	691,8	612,9	88,6	15
Ozarbayjon	53,1	377,2	7,1 b.	16
AQSH	655,9	368,9	56,2	17
Pokiston	100,2	334,7	3,3 b.	18
Ukraina	689,0	324,9	47,2	19
Armeniya	-	182,1	-	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **39** tani tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarri	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>215 193,9</b>	<b>126,4</b>
Navoiy sh.	153 153,0	124,2
Zarafshon sh.	220,4	12,8
G'ozg'on sh.	466,3	5,9 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	25 212,4	165,9
Konimex	171,5	121,0
Qiziltepa	19 755,8	4,2 b.
Navbahor	11 129,6	131,5
Nurota	1 779,1	111,1
Tomdi	309,3	80,4
Uchquduq	367,3	55,5
Xatirchi	2 400,2	18,0
Bo'linmaydigan hajm	229,0	-



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **71,2 %** ulush bilan **153 153,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1 %** ulush bilan **171,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-may, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,4	4,3	4,1
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	9,6	2,5	12,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	0,8	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	67,8	65,4	56,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,4	21,4	21,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,1	0,3	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	3,0	3,0	2,9
Xizmatlar	1,5	2,3	0,7

2022- yil yanvar-may oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi **7,2** punktga oshib **21,6** % ni, nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari tovarlari ulushi **2,9** punktga oshib **12,5** % ni tashkil etdi.


## NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, mln. AQSH dollar)



XSST tarkibi	Kanada		Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	83,6	59,4	-	57,5	13,0	39,1	14,9	15,8
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	-	-	0,6	0,3	-	0,2
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	-	-	0,1	20,6	1,0	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	-	-	-	-	-	0,2	1,1	1,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	82,9	59,3	-	57,5	-	-	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,7	0,1	-	-	7,7	12,2	11,1	12,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	-	3,8	5,1	-	-
Xizmatlar	-	-	-	-	0,8	0,7	1,7	0,5

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar hamda nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar kiradi.

## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 1,5 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,7 %** ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **39,4 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**72,1 %**), moliyaviy xizmatlar (**14,2 %**) va safarlar (turizm xizmatlari) (**13,7 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-may, ming AQSH dollarari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **3 866,7** ming AQSH dollar qiymati **5 842,1** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan **101,9 %** ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida **1,8 %** ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida **1 779,5** ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida **1 162,2** ming AQSH dollarini, Karmana tumanida **386,4** ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida **346,2** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-may)



Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollarari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollarari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	4 057,5	2 220,7	58,5	3 010,2	1 161,9	30,1
Eron Islom Respublikasi	196,0	200,0	5,3	573,0	624,5	16,1
Afg'oniston	174,1	134,2	3,5	747,8	522,1	13,5
Xitoy Xalq Respublikasi	128,0	119,5	3,1	367,0	364,6	9,4
Pokiston	25,0	99,9	2,6	174,3	334,7	8,7
Rossiya Federatsiyasi	128,0	119,5	4,7	290,6	293,4	7,6
Turkiya	-	-	-	142,3	158,9	4,1
Ukraina	-	-	-	189,0	116,2	3,0
Iraq	66,9	57,9	1,5	119,8	97,1	2,5
Polsha	-	-	-	84,2	72,7	1,9
Belarus Respublikasi	651,5	351,0	9,3	107,1	58,4	1,5
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	0,8
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	0,7
Tojikiston	-	-	-	2,3	3,7	0,1
Boshqa davlatlar	405,2	493,2	11,5	-	-	-

\* qiyamat ifodasidan


Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (**30,1 %**), Eron Islom Respublikasi (**16,1 %**), Afg'oniston (**13,5 %**) va Xitoy Xalq Respublikasi (**9,4 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



2022- yil yanvar-may oylarida import hajmi **224,0** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **78,2 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**41,3 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**24,0 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,7 %**) ga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi **218,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **5,9** mln. AQSH dollariga yetdi.

## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami import	286,6	224,0	78,2	100,0
shu jumladan:				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10,6	8,1	76,5	3,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,9	4,1	2,2 b.	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	9,2	50,3 b.	4,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,0	-	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	25,5	37,4	146,9	16,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	40,3	53,8	133,4	24,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	161,7	92,6	57,2	41,3
Turli xil tayyor buyumlar	31,6	11,9	37,8	5,3
Xizmatlar	14,8	5,9	39,7	2,6

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**41,3 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**24,0 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**16,7 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,3 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**50,3** barobar), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**2,2** b.), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**46,9 %**) va asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**33,4 %**) o'sgan.



### **NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI** (yanvar-may, mln. AQSH dollar)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-may oyida import hajmi **224,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollarari, ulushi, % da)




MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **43,2** va **56,8** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston, Koreya Respublikasi va Germaniya) jami importning **87,2** % ini tashkil qiladi, bu **195,4** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

## NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-may, % da)



## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollarri		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Xitoy Xalq Respublikasi	29 099,9	65 775,0	2,3 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	67 200,2	51 161,5	76,1	2
Qozog'iston	20 367,6	42 129,7	2,1 b.	3
Turkiya	16 540,4	10 800,2	65,3	4
Hindiston	856,4	10 226,5	11,9 b.	5
Koreya Respublikasi	13 883,8	9 662,4	69,6	6
Germaniya	6 552,4	5 659,8	86,4	7
Eron Islom Respublikasi	3 524,6	5 114,9	145,1	8
Kanada	2 933,6	2 315,5	78,9	9
Tayvan	44,5	2 285,8	51,3 b.	10
Yaponiya	15 171,0	1 946,3	12,8	11
AQSH	32 577,4	1 614,8	5,0	12
Finlyandiya	837,5	1 455,3	173,8	13
Sloveniya	5,9	1 401,1	237,8 b.	14
Avstriya	225,7	1 246,5	5,5 b.	15
Litva	29 330,4	1 242,8	4,2	16
Turkmaniston	851,5	1 167,5	137,1	17
Fransiya	1 626,3	1 026,4	63,1	18
Qirg'iz Respublikasi	355,0	1 004,9	2,8 b.	19
Italiya	5 498,8	953,4	17,3	20

2022- yil yanvar-may oylari yakuni bo'yicha **55** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022- yil yanvar-may)

Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollarari	O'tgan yilga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>224 010,8</b>	<b>78,2</b>
Navoiy sh.	79 557,5	47,2
Zarafshon sh.	3 824,2	67,3
G'ozg'on sh.	1,7	1,8
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	114 558,7	127,7
Konimex	34,9	3,5
Qiziltepa	10 895,6	2,9 b.
Navbahor	2 576,3	85,7
Nurota	1 738,4	49,3
Tomdi	213,5	7,6
Uchquduq	9 017,9	4,2 b.
Xatirchi	1 231,6	36,5
Bo'linmaydigan hajm	360,5	-



Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **51,1 %** ulush bilan **114 558,7** ming AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa G'ozg'on shahri **0,001 %** ulush bilan **1,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,7	3,7	3,6
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,6	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	0,1	0,1	4,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	0,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar	14,3	8,9	16,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	15,4	14,1	24,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	59,9	56,4	41,3
Turli xil tayyor buyumlar	5,8	11,0	5,3
Xizmatlar	3,2	5,2	2,6

2022- yil yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **14,1 %** dan **24,0 %** gacha, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar importining ulushi **8,9 %** dan **16,7 %** gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallarda esa **0,1 %** dan **4,1 %** gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **5,9** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,6 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **39,7 %** ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**59,1 %**), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2 %**) va boshqa xizmatlar (**40,7 %**) dan iborat bo'ldi.



### XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va**

**savdo statistikasi bo'limi**

**Tel.: (99879) 223-50-43**